XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 23-iyul VII-15-72-2-0-K/25 Buxoro viloyati

Buxoro viloyati hududida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish hamda qabul qilish va saqlash boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflarini tartibga solish toʻgʻrisida

“Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni 6, 24-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bogʻliq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4845-son qarori 4-bandi, 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy taʼsirini kamaytirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5-sonli Farmoni, viloyat hokimligining 2025-yil 23-maydagi 3/1216-01-03-sonli xati, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 5-maydagi *(03/07-32/111, 03/07-32/112, 03/07-38/530, 03/07-38/531-sonli)* xulosalari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining 2025-yil 8-maydagi 03-/901-sonli xatiga asosan hamda hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi viloyat boshqarmasi boshligʻi v.b. A.Mirzaraximovning Buxoro viloyati hududida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish hamda qabul qilish va saqlash boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari yuzasidan taqdimoti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining viloyat hududida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari yuzasidan berilgan takliflari inobatga olinsin.

3. Buxoro viloyati hududida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan hududiy poligonlarda maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash boʻyicha toʻlovlar quyidagi:

1 metr kub maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash xizmati uchun 17 900 (oʻn yetti ming toʻqqiz yuz) soʻm *(QQS bilan birga)*;

1 tonna maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash xizmati uchun 40 300 (qirq ming uch yuz) soʻm *(QQS bilan birga)* miqdorda belgilansin.

5. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi (J.Nosirov), viloyat sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (A.Toʻxtayev) shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sogʻligʻiga zararli taʼsirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish choralarini koʻrib borsin.

6. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligining viloyat boshqarmasi (A.Mirzaraximov) tuman va shahar hokimliklari hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

bir oy muddatda hududlar, binolar va inshootlar ning qattiq maishiy chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning talablarini oʻrganib chiqib, qoʻshimcha qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va vaqtincha saqlash uchun moʻljallangan maxsus chiqindi qutilari joylashtirilishini;

qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqish xizmatlari uchun aholi tomonidan majburiy toʻlovlarni toʻlash va hisobini yuritish ishlarini yagona elektron tizim orqali amalga oshirilishini;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi “2019-2028-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ-4291-son qarori ijrosini taʼminlash maqsadida Peshku tumani “Oʻgʻlon” MFY hududidagi chiqindi poligoni oʻrniga qattiq maishiy chiqindilarni qayta yuklash stansiyasi tashkil etilishini taʼminlasin.

7. Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2023-yil 14-dekabrdagi VI-88-95-2-0-K/23-sonli qarori hamda Buxoro viloyat hokimining 2024-yil 6-fevraldagi 62-2-0-Q/24-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida eʼlon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror 2025-yil 1-avgustdan eʼtiboran kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi



ASHUROV JAMOL
RAJABBOYEVICH

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2025-yil 23-iyuldagi
VII-15-72-2-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori

№	Hudud	Xizmat turi	Joriy tarif miqdori *(QQS bilan, so‘mda)*	Yangi tarif miqdori *(QQS bilan, so‘mda)*
1.	Shaharlar	Aholi uchun *(bir kishiga bir oyda)*	5 600	7 800
2.	Tumanlar		4 480	6 700
3.	Shaharlar	Yuridik korxonalar uchun *(bir metr kub)*	92 960	144 500
4.	Tumanlar		79 520	123 000